



Yuridik ixtiloflar tushunchasi, ularning turlarini milliy huquq va ba'zi xorijiy davlatlar huquqi miqyosidagi qiyosiy tahlili

Nosirova Marjona Negmat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Elektron pochta : nosirovamarjona@gmail.com

Tel : +998 (77) 074-36-77

Annotatsiya: mazkur maqola orqali muallif yuridik ixtiloflar tushunchasi, ularning turlari va kelib chiqish omillarini tahlil qilgan. Qolaversa, mazkur maqola milliy huquq va xorijiy davlatlar huquqida yuridik ixtiloflar tushunchasi va ularning turlari bo'yicha qiyosiy tahlillarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yuridik ixtilof, kollizion huquq, yuridik konfliktologiya, ixtiloflar profilaktikasi, vertical hujjatlar, gorizontal hujjatlar, "paritet" (tenglik), muvoziylik, subyektiv va obyektiv sabablar.

The concept of legal disputes, a comparative analysis of their types on the scale of national law and the law of some foreign countries

Abstract: through this article, the author analyzed the concept of legal disputes, their types and factors of origin. In addition, this article includes a comparative analysis of the concept of legal conflicts and their types in national law and the law of foreign countries.

Key words: legal conflict, conflict law, legal conflictology, prevention of conflicts, vertical documents, horizontal documents, "parity" (equality), parallelism, subjective and objective reasons.

Понятие правовых споров, сравнительный анализ их видов в масштабах национального права и права некоторых зарубежных стран.

Аннотация: посредством данной статьи автор проанализировал понятие правовых споров, их виды и факторы возникновения. Кроме того, в данной статье проводится сравнительный анализ понятия правовых коллизий и их видов в национальном праве и праве зарубежных стран.

Ключевые слова: правовой конфликт, коллизионное право, правовая



конфликтология, предотвращение конфликтов, вертикальные документы, горизонтальные документы, «паритет» (равенство), параллелизм, субъективные и объективные причины.

Yuridik ixtiloflar va ularni bartaraf etish haqida soʻz borganda, dastlab yuridik ixtilof tushunchasi nima ekanligini bilib olish lozim. Yuridik ixtilof tushunchasiga turli xil taʼriflar mavjud boʻlib, masalan professor Yu.A.Tixomirovning fikriga koʻra, **yuridik ixtilof** – amaldagi huquqiy hujjatlar bilan huquqiy tartib va talablar, ularni oʻzgartirish, eʼtirof etish yoki rad etish boʻyicha harakatlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik (ziddiyat) tushuniladi¹.

X.T.Odilqoriyev esa oʻz darsligida yuridik ixtilof tushunchasiga ayni bir yoki oʻxshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasidagi nomutanosiblik yoki qarama-qarshiliklar, shuningdek huquqni qoʻllash bilan mutasaddi davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan oʻz vakolatlarini amalga oshirish jarayonida kelib chiquvchi qarama-qarshiliklar deya taʼrif bergan².

Demak, yuridik ixtilof deganda, muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasidagi nomuvofiqlikni tushunish mumkin.

Yuridik ixtiloflar nafaqat koʻp sonli, balki oʻz mazmuni, xususiyatlari, keskinligi, sohaviy mansubligi, ijtimoiy-siyosiy yoʻnalishi, shakli va hal etilish usuliga koʻra nihoyatda turli-tumandir.

Ilmiy tahlil yoʻnalishini belgilash maʼnosida, avvalo, yuridik ixtiloflarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) normativ-huquqiy hujjatlar yoki alohida yuridik normalar oʻrtasidagi ixtiloflar;
- 2) huquq ijodkorligidagi ixtiloflar (tizimning yoʻqligi yoki sustligi, muvoziylik, oʻzaro bir-birini inkor qiluvchi hujjatlarning chiqarilishi);
- 3) huquqni qoʻllash jarayonidagi ixtiloflar (ayni bir toifa munosabatlarni tartibga solishga yoʻnaltirilgan bir necha hujjatlar yoki normalarni qoʻllash);
- 4) davlat organlari, mansabdor shaxslar, boshqa hokimiyat tuzilmalari

¹ Теория государства и права / Под.ред.проф. В.К.Бабаева. – М., 2006. – 503-504 ст.

² Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. “Adolat”, 2018. 445-bet.



vakolatlari va maqomidagi ixtiloflar;

5) maqsadlar o'rtasidagi ixtiloflar (turli darajadagi yoki turli idoralar qabul qilgan normativ hujjatlarda mustahkamlangan maqsadlarning bir-biriga qarama-qarshiligi, ba'zan esa o'zaro istisno etishi);

6) milliy va xalqaro huquq normalari o'rtasidagi ixtilof.

Yuridik ixtiloflarning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Qonunlar va qonun osti hujjatlar o'rtasidagi ixtiloflar. Basharti, mazkur turdagi ixtiloflar yuzaga kelsa, masala qonun foydasiga hal etiladi. Chunki, qonun yuqori yuridik kuchga ega va uning ustunligi ta'minlanishi lozim. Kodeks bilan qonun o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan taqdirda, masala kodeks foydasiga hal etiladi. Bir mavzuga oid bir necha qonun (yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat) mavjud bo'lsa hamda ular bir-biriga zid bo'lib qolsa, muddati bo'yicha keyinroq qabul qilingan qonun (hujjat) qoidalari amal qiladi.

2. Konstitutsiya bilan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ixtiloflar. Bunday yuridik ixtiloflar Konstitutsiya foydasiga hal etiladi, chunki Konstitutsiya barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasi ikkinchi qismida mustahkamlanganidek, "birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalarga zid kelishi mumkin emas".

3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ixtiloflar. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas (74-modda). O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir. Shunday qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari esa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga to'la mos bo'lishi shart.

4. Mamlakatning milliy qonunchiligi normalari bilan xalqaro huquq normalari o'rtasidagi ixtiloflar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mustahkamlanganidek, O'zbekistonda xalqaro huquqning umum



e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 3-moddasida xalqaro huquqning ustuvorligi belgilangan. Mazkur normaning mazmuni quyidagicha: 'Basharti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida esa, "Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq qilish" degan bo'lim mavjud. Unda, xususan, quyidagi qoida mustahkamlangan: – chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi yoxud chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq ushbu Kodeks, boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalar va e'tirof etilgan xalqaro taomillar asosida, shuningdek, taraflarning kelishuvi asosida belgilanadi; – taraflarning huquqni tanlashga doir kelishuvi ochiq ifodalangan bo'lishi yoki bevosita shartnoma talablaridan va ishning ko'rib chiqilayotgan barcha holatlaridan kelib chiqishi lozim; – agar ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqni aniqlashning imkoni bo'lmasa, chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan eng uzviy bog'langan huquq qo'llanadi; – chet el huquq normasi ommaviy-huquqiy xususiyatga ega bo'lganligiga asoslanibgina uni qo'llashni cheklash mumkin emas.

Yuridik ixtilof tushunchasi va uning turlari haqida ba'zi xorijiy davlatlar huquqi bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, masalan, Rossiya Federatsiyasi huquqida professor T.N. Radko, yuridik ixtilof tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "yuzaga kelgan muammoni hal qilishda aniqlik yo'qligi sababli vujudga keladigan bir xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ikki yoki undan ortiq normalar o'rtasidagi raqobat, qarama-qarshilikdir"³.

Huquqiy nizolar nafaqat ko'p, balki ularning xarakteri, jiddiyligi, iyerarxiyasi, ijtimoiy yo'nalishi, sohaga mansubligi, siyosiy lashtirish, ifodalash shakllari va hal qilish usullari juda xilma-xildir. N.I. Matuzov ularni quyidagi oltita

³ Радько Т.Н. Теория государства и права. М., 2004.



turga ajratadi:

1) normativ hujjatlar yoki individual huquqiy normalar o'rtasidagi ziddiyatlar;

2) qonun ijodkorligidagi to'qnashuvlar (tizimsiz, takrorlash, bir-birini istisno qiluvchi aktlarni nashr etish);

3) bir xil normativ hujjatlarni amalga oshirish amaliyotidagi nomuvofiqlik;

4) davlat organlarining vakolatlari va maqomlarining ziddiyatlari; mansabdor shaxslar, boshqa kuch tuzilmalari va sub'ektlari ("begona" sohalarga bostirib kirish);

5) maqsadlar kolliziyasi (turli darajadagi yoki turli organlarning qoidalari bir-biriga zid bo'lgan hollarda);

6) milliy va xalqaro huquq o'rtasidagi ziddiyat.

Qozog'iston davlatining huquqiga ko'ra, S.I.Ozogov va N.Y.Shvedovalarning ensiklopedik lug'atlarida yuridik ixtilof tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ixtilof har qanday qarama-qarshi kuchlar, manfaatlar, intilishlarning to'qnashuvi"dir.

Olimlar F.A.Brokgauz va I.A.Efron esa to'qnashuv torroq tushuncha bo'lib, ishda yuzaga keladigan huquqiy normalarning (qonunlar yoki maqomlarning) ziddiyatidir deya ta'kidlashgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, yuqorida sanab o'tilgan ta'riflar deyarli barcha turdagi huquqiy ixtiloflarni o'z ichiga oladi, shuningdek, yuridik ixtiloflarni o'xshash atamalardan (konflikt) ajratish imkonini beruvchi xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mustahkam qonuniylik va barqaror huquqiy tartibotni ta'minlash har qanday jamiyat va davlatning diqqat-e'tibori markazida turgan masalalardan biridir. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi qonunlarimizda bir-biriga zid o'rinlar ham yo'q emas", deydilar. Darhaqiqat, yuridik ixtiloflar tushunchasini bilib olish, yuridik ixtiloflarning qanday turlari bor ekanligini aniqlash orqali yuridik ixtiloflarni qanday bartaraf etish usullarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarbdir. Shu sababli, yuridik ixtiloflarni aniqlash



tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ya'ni, qachonki qonunchilik hujjatlari o'rtasida yuridik ixtiloflar yuzaga kelmasligi uchun ularni jamiyatga tatbiq etishdan avval uning aynan bir xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-hujjatlar normalariga zid ekanligini aniqlash maqsadida muayyan dastur (masalan, antiplagiat dasturiga o'xshash) yaratilib, u orqali yuridik kolliziyalarni aniqlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "Adolat" – 2023.
2. SH.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021.
3. Теория государства и права / Под.ред.проф. В.К.Бабаева. – М., 2006. – 503-504 ст.
4. Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2018. 445-bet.
5. Радько Т.Н. Теория государства и права. М., 2004.
6. C. Wilfred Jenks, 'The Conflict of Law-Making Treaties' (1953) 30 British Yearbook of International Law 401, 403; see also ibid at 405-06.

Internet manbalari:



1. <https://www.lex.uz/>
2. <https://pravo.cliff.ru/>
3. <https://www.marks-academy.ru/>
4. <https://www.admugansk.ru/>